

1-SINF TARBIYA DARSLIGIDA INTEGRATSION YONASHUV ASOSIDAGI TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Egamova Gulruxsor Abduvali qizi

Guliston Davlat Universiteti stajor-tadqiqotchisi

[Tel:+99897 344 31 24](tel:+998973443124)

@mail: gulruxsor886@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 1-2-sinflari uchun mo'ljallangan Tarbiya darsligida integratsion yondashuv asosida berilgan mavzular va topshiriqlar o'rganilgan. Ushbu mavzu va topshiriqlarning afzallik va kamchiliklari, Milliy o'quv dasturiga qanchalik mos kelishi o'rganilib, qiyosiy-tanqidiy tahlil qilingan. Mavjud muammolar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya darsligi, boshlang'ich sinf, integratsiya, integratsion yondashuv, fanlararo bog'lanish, ona tili, o'qish, tasviriy san'at, kibermadaniyat.

Annotation: This article provides information about one of the two major components of Pedagogy – the theory of upbringing, its importance in the current educational system, types of upbringing. Methods for the formation of certain types of upbringing in schoolchildren have been studied.

Keywords: educational textbook, elementary grade, integration, integrative approach, interdisciplinary connection, native language, reading, fine arts, cybersecurity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются темы и задания, изложенные на основе интеграционного подхода в учебнике по воспитанию, предназначенном для 1-2 классов общеобразовательных школ. Изучены и сравнительно-критически проанализированы достоинства и недостатки этих тем и заданий, насколько они соответствуют национальной учебной программе. Разработаны предложения и рекомендации по существующим проблемам.

Ключевые слова: учебник по воспитанию, начальный класс, интеграция, интеграционный подход, междисциплинарная коммуникация, родной язык, чтение, изобразительное искусство, киберкультура.

Dars jarayonlari va darsliklarga integratsion yondashuv masalalari hozirgi texnika va texnologiya asrida dolzarb mavzulardan biri bo'lib, ushbu mavzu ko'plab olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ammo dars jarayonida integratsion yondashuvni ma'lum qolipga, vaqt chegarasiga va yoki aniq bir o'lchovga solib bo'lmaydi. Shu sababli ham turli shaxslar tomonidan turlicha yondashuv asosida integratsiya tushunchasi tahlil qilinadi. Bu esa o'z navbatida ko'plab noaniqliklar, anglashilmovchiliklar va dars jarayonida maqsadga erishish o'rniga mavzudan yiroqlashib ketish kabi muammolarga ham sabab bo'lib qolishi ko'zga tashlanmoqda.

Umumta'lim maktablarining 1-2-sinflari uchun mo'ljallangan va so'nggi yillarda muhokamadan o'tgan Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan Tarbiya darsliklari mavzular qamrovi keng, tarbiya turlari bilan bir qatorda umumjamiyat ahamiyatiga molik masalalarni ham qamrab olgan darslik sifatida maydonga chiqdi.

Umumjamiyat ahamiyatiga molik masalalar haqida soʻz yuritar ekanmiz, bu masalada maktab dasturiga kiritilgan har bir fan alohida oʻziga xos rol oʻynashini taʼkidlash oʻrinlidir. Chunki har bir fan oʻquvchi shaxsiga nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, turli hayotiy vaziyatlarda ushbu bilimlardan qanday foydalanishni, nazariya va amaliyot birligi zaruriyatining ahamiyatini ham anglatib borish vazifasini bajaradi. Shu sababli ham zamonaviy Tarbiya darsligi mavzular qamrovini kengroq olgan holda, umumtaʼlim maktablarining boshlangʻich sinflariga oʻtilishi koʻzda tutilgan barcha fanlar, jumladan, ona tili, oʻqish, matematika, tabiiy fan, texnologiya, tasviriy sanʼat kabilar bilan uygʻunlashtirgan holda ochib berishni koʻzda tutadi.

1-sinf Tarbiya darsligi oʻz tarkibiga 33 ta mavzuni qamrab olgan boʻlib, ushbu mavzular quyidagi boblar tarkibida yoritib berilgan:

1. Mening Vatanim – Oʻzbekiston
2. Men va doʻstlarim
3. Men va fazilatlarim
4. Bizning madaniyatimiz

Mavzular tarkibiga eʼtibor berilsa, mavzularning takrorlanmasligiga va bir-birini uzviy davom ettirishga ahamiyat berib tanlanganligini koʻrishimiz mumkin.

Oʻquvchilar uchun tushunarli va qiziqarli boʻlishi uchun 1-sinf darsligida topshiriqlar asosan tasviriy sanʼat faniga integratsiyalangan holda ishlab chiqilgan. Oʻquvchilarning mantiqiy fikrlashlarini oʻstirish, turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlab borish maqsadida mavzular yakunida muhokama uchun muammoli vaziyatlar berilgan.

5-6-darsda quyidagi topshiriq ona tili faniga integratsiyalangan holda ishlab chiqilganligini koʻrishimiz mumkin:



Yozma topshiriq

Oʻylab koʻring va gaplarni toʻldiring.

Endi men ni bilib oldim.
Endi men qilaman.
Endi men qilmayman.

7-darsda berilgan yoʻl harakati qoidalariga doir quyidagi topshiriq esa oʻquvchilarni koʻchada intizomli boʻlishga oʻrgatishni maqsad qilgandir:



Savolga javob bering



Bu svetoforlarning chiroqlari
nimani bildiradi?



O'quvchilarda hali yozuv malakalari yetarli darajada rivojlanmaganligini hisobga oladigan bo'lsak, topshiriqlarning asosan og'zaki va chizish-bo'yashga asoslanganligi maqsadga muvofiqdir.

10-11-darslarda o'qish fani bilan integratsiyalashgan quyidagi she'r matni berilgan:

Sehrli so'zlar

Har bir gap-u so'zimiz –
Go'yo oyna-ko'zgumiz.
Aytgan har so'zimizda
Ko'rinamiz o'zimiz.
Qanday yaxshi so'z-kalom
Odob boshi "Assalom".
Xush yoqadi hamma vaqt:
"Rahmat", "labbay", "marhamat".
So'nggi so'z ham alomat –
"Xayr, bo'ling salomat!"

Dilshod Rajab

Shu va shu kabi ko'pgina mavzularda qiziqarli va mazmunli she'rlar berilgan. E'tiborimizni tortgan jihati shundaki, o'qish faniga integratsiyalangan holda, ushbu she'rlarni ifodali o'qish, yodlash mumkin. Ammo aynan tarbiya fani va berilgan mavzuga bog'liq ravishda biror topshiriq yoki savol berilmagan. Masalan, yuqoridagi she'r mazmuniga mos quyidagi topshiriqlar berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. She'rni ifodali o'qing va mazmunini tahlil qiling.
2. She'r matni tarkibidagi sehrli so'zlarni ajratib, qay biridan qachon foydalanishingizni aytib bering.
3. Bu so'zlar nima uchun "sehrli so'zlar" deyilishini izohlang.

Ushbu mazmundagi topshiriqlar orqali biz aynan o'qish faniga tegishli bo'lgan matnlarni ham tarbiyaviy ahamiyatga yo'naltirishimiz mumkin.

Ushbu mavzuda yana quyidagi topshiriq ham berilgan:

Qaysi qurilmalar orqali muloqot qilish mumkin?



Savollarga javob bering

1. Telefonda suhbatni qanday boshlash kerak?
2. Suhbat paytida qanday so'zlardan foydalanish lozim?
3. Telefonda gaplashishning afzalligi nimada?
4. Telefonda gaplashishning qanday kamchiligi bor?

Savollar mazmuniga e'tibor berilsa, asosan telefon qurilmalariga doirligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi davrda esa 5-6 yoshli bolalar kompyuter va televizordan ham turli ko'ngilochar dasturlarni tomosha qilish uchun foydalanishlari sir emas. O'quvchilarning kompyuter savodxonligi bilan bir qatorda kibermadaniyatini shakllantirish uchun televizor va kompyuterdan ham unumli foydalanishga doir qisqa savol yoki topshiriqlarni kiritib ketish integratsion yondashuv jarayonida samarali usullardan biri deyish mumkin.

1-sinf Tarbiya darsligidagi mavzular va topshiriqlarni tahlil qilar ekanmiz, har bir mavzu o'ziga xos ahamiyatga ega, keng ko'lamda yoritilgan va eng muhimi har bir fan asoslariga integratsiya maqsadli amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, biz bergan takliflar ushbu mavzulardagi integratsion maqsadni yana-da samarali amalga oshirish va dars jarayonida o'quvchilarning mavzuni anglab olishini osonlashtirib beradi. Bu esa Tarbiya fanidan ko'zlangan eng muhim maqsad – tarbiya turlarining har birini o'quvchi shaxsiga mukammal singdirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.S.Abdullayeva, M.B.Tursunova, M.X.Xaydarova - "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani". Darslik. Toshkent-2022.
2. O.M.Jabborova, Z.A.Umarova, L.G.Babaxodjayeva – "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi". Darslik. "Malik print co". Toshkent-2021.
3. "Tarbiya fanidan Milliy o'quv dasturi". RTM. 2020.

4. “Tarbiya darsligi”. Umumta’lim maktablarining 1-sinfi uchun. “Novda” nashriyoti. Toshkent-2023.
5. “Tarbiya darsligi”. Umumta’lim maktablarining 1-sinfi uchun. “G‘afur g‘ulom” nashriyoti. Toshkent-2020.